

"TEMUR TUZUKLARI" DA MA'RIFAT MASALALARI<https://doi.org/10.5281/zenodo.10064048>**Tishabayev Alisher Maxamatdjonovich**

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish institut Farg'ona filiali*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonga mashhur sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning bizga me'ros qilib qoldirgan "Temur tuzuklari" asarida odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lif-tarbiya, pand-nasihatlarni o'zida mujassamlashirgani, umuman Temurning o'z davrda ma'naviyat va ma'rifat masalariga katta e'tibor qaratgani haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'z va iboralar: imperiya, "Temur tuzuklari", odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lif-tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, do'stlik, mehr-shafqat, odamiylik.

Аннотация: В данной статье произведение всемирно известного полководца и государственного деятеля Амира Темура «Законы Темура» воплощает в себе нравы, веру, убеждения, образование, советы, в целом Темура сведения о том, что он уделял большое внимание вопросам духовности и просвещение в его период освещено.

Ключевые слова и фразы: империя, «правила Тимура», нравы, вера, вера, образование, духовность, просвещение, дружба, доброта, человечность.

Annotation: In this article, the world-famous general and statesman Amir Temur's work, "Temur's Laws", embodies morals, faith, belief, education, and advice, in general, Temur's The information that he paid great attention to matters of spirituality and enlightenment during his period is covered.

Key words and phrases: empire, "Timur's rules", manners, faith, belief, education, spirituality, enlightenment, friendship, kindness, humanity.

Temur yaratgan imperiya jahondagi buyuk imperiyalar orasida alohida o'r'in tutadi. U yaratgan imperianing buyukligi va qudrati, eng avvalo, uning g'ayritabiiy shaxsiy fazilatlari va iste'dodi bilan belgilanadi.

Amir Temur dunyo miqyosidagi noyob hukmdor bo'lgan Temur davrida Mavorounahr Markaziy mintaqalarga nafaqat geografik, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham kirib keldi. Xitoy, Hindiston, Mo'g'uliston, Oltin va Oq O'rdalar, Iraq, Vizantiya va boshqa davlatlar hukmdorlari Temur huzuriga o'z elchixonalarini yubordilar. Uning faoliyati tashqi siyosat va diplomatiya sohasida yaqqol namoyon bo'ldi.

U o'zining noyob shaxsiy fazilatlari va iste'dodi tufayli yollanma harbiydan jahonga mashhur davlat arbobi darajasiga ko'tarilgan va mamlakatni yuksalishga, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tamoyillarni yagona mujassamlashgan ittifoqda birlashtirgan

qudratli davlat yaratishga erishdi. O'rta Osiyo va unga tutash hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirganda Temur markazdan ko'chma kuchlarni birlashtirishga xizmat qilgan turli taktik hamda strategik usullarni qo'llagan, ular harbiy kuch ishlatish, diplomatiya, rag'batlantirish choralari va hokazolardan iborat.

Buyuk Sohibqironning murakkab va sharaflı hayot yo'li, serqirra faoliyati zamondosh va keyingi avlod tarixchilari tomonidan bir qator manbalar asosida keng o'rganildi. Mazkur asarlarda uning el-yurt va fuqaroning tashvishi, raiyatparvarlik, to'g'rilik, mehr-muruvvat, xalq qayg'usi bilan bandlik, adolatlilik, donishmandlik, dushmanga shafqatsizlik, qat'iyatlilik, dinu diyonatga chorlash, qo'shnichilik aqoidlariga rioya qilish va boshqa insoniy jihatlari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud.

"Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan mutolaa qilsak, uning ko'p yaxshi sifatlari bilan tanishamiz. Davlat boshqaruviga oid «Tuzuklar»i bunga yaqqol misol bo'la oladi. «Temur tuzuklari» bu ulug' insonning ichki olamini, dunyoqarashini, hayotdan olgan saboqlarini qanday talqin etganini, muhim qaror va xulosalarga kelishdan oldin u yoki bu muammoning eng to'g'ri yechimiga olib boruvchi omillarni to'g'ri belgilash qobiliyatini yaqqol namoyon etadi. Unda Amir Temurning ibratli pand-nasihatlari va o'gitlari orqali uning el-yurt va fuqarolar g'ami bilan yashaganligi, doimo xalq ahvoidan boxabar bo'lganligi, uning yaxshi yashashi uchun barcha sharoitlarni yaratishga davlat rahbari sifatida bel bog'laganligini anglash mumkin." [1]

Buyuk bobokalonimiz, Soxibqiron Amir Temur odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida o'zi yuksaklikka erishgan siymlardan biri ekanligiga ishonch hosil qilish uchun bobomiz tomonidan yaratilgan odob-ahloqqa oid o'gitlarga, pand-nasihatlarga xamda Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarga, jumladan "Temur tuzuklari" asariga ko'z tashlash kifoya. «Temur tuzuklari» mashhur asarlardan biri bo'lib, bu asarda ibratli, hayotiy pand-nasihatlar va o'gitlar mazmunliligi, kuchliligi, teranligi, ta'sirchanligi, umuminsoniy qadriyatlar asosida yozilganligi bilan ajralib turadi. Amir Temurning o'z davrda ma'naviyat va ma'rifat masalariga katta e'tibor qaratgani ham aynan shu asar orqali isbot etsa bo'ladi. Jumladan Amir Temur tuzuklarida ma'haviy kamolatga erishish yo'li to'g'risida shunday xikmatli so'zni uchratish mumkin: Piri komil Shayx Baxovuddin Naqshbandiyning "Kam yegin, kam uxla, kam gapir" degan pandu-nasihatlariga amal qildim. Arkonu davlatga barcha mulozimlarga ham aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam yenglar – ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar – mukammalliklarga erishasizlar, kam-kam gapiringlar dono bo'lasizlar". [2:98] Olam-olam ma'no jam bo'lgan ushbu purma'no so'zda inson ma'naviy kamoloti xaqida so'z bormoqda. Ushbu xikmat Amir Temur tomonidan ma'naviy kamolot yo'lida dastur-ul amal sifatida qabul qilingan. Bu xikmatli so'zlar bugun xam o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Zero inson faqatgina kam uxbab ko'p xarakat qilsa va kam gapirib ko'p fikrlasa uning ma'naviy qiyofasi o'sib boradi xamda iqtisodiy va ma'naviy boylikka erishadi.

Asardagi barcha o'gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtiradigan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega. Temur tuzuklari

Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g'olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'tasidagi buzilmas do'stlik, mehr-shafqat, odamiylik va ahloq-odobni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag'ishlangan ma'naviy qiyofasining maxsulidir.

Amir Temur davrida nafaqat ma'naviyat balki ma'rifat masalariga xam katta e'tibor qaratilganliga guvox bo'lamiz. Markazlashgan davlatning asoschisi Amir Temur mamlakatda ilm-fan va ta'lif-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berdi. Natijada, davlatning iqtisodiy va madaniy qudrati yuksaklikka ko'tarildi.

Misol tariqasida aytish joiz madrasalar oliy o'quv yurti vazifasini o'tagan. Ular diniy va keyinchalik dunyoviy bilimlar o'chog'i xisoblangan. Madrasalarda mamlakatning eng atoqli donishmand shayxlari, olimu ulamolari mudarrislik qilishgan, ma'ruzalar o'qishgan. Buning isbotini tuzuklarda xam uchratish mumkin. Jumladan tuzuklarda Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, musofir yo'lovchilar uchun yo'l ustida rabotlar bino qilishni amalga oshirdim [2:98] deb ta'kidlanadi. Ko'rinib turibdiki Amir Temur o'z davlati fuqarolarini bilimli bo'lishi uchun davlat siyosati darajasida e'tibor qaratgan. Bundan tashqari rabotlar qurish orqali fuqarolari tinchligi va osoyishtaligi uchun xizmat qilgan. Bu kabi mexanizmni ishlab chiqish uchun faqat ma'naviy kamolatga erishishgan ma'rifatli inson bo'lish kerak. Amir Temur davlati ana shu kabi to'g'ri tashkil etilgan boshqaruv siyosati sabab markazlashgan yirik davlatga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Tuzuklarda yozilishicha Amir Temur diniy bilimlar rivojiga xam katta e'tibor qaratgan. Bunga yaqqol misol tariqasida tuzuklarda mavjud quyidagi jumlanı keltirish kifoyadir.

"... Musulmonlar diniy masalalardan ta'lif berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: Tafsir, Hadis, Fiqhdan dars bersinlar deb har bir shaharga olimlar va mudarrislari tayin qildim" [2:98]. Bu fikrni Amir Temurning diniy va dunyoviy bilimlarni teng ko'rganligi xamda ularni biri ikkinchisini to'ldiruvchi ma'naviy ozuqa ekanligini yaxshi tushunganligini yorqin namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

"Amir Temur davlatida, xususan uning poytaxti bo'lmish Samarqandda ijodkor insonlar yashashi va ijod qilishi uchun barcha moddiy-maishiy sharoitlar yaratilgan ekanki, jahonning turli joylaridan olimu fuzalolar, muhandislar va hunarmandlar bu yerga oqib kela boshlagan.

Frantsuz olimi Lyangle ham Amir Temurning ilm ma'rifat allomalariga, sohibi hunarmandlarga qanchalik hurmat bilan munosabatda bo'lganligi to'g'risida shunday deydi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofkilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhabatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki, Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi»." [3]

Xulosa shuki Amir Temur ma'naviyat va ma'rifat masalariga katta e'tibor bergani sabab markazlashgan davlat tizimini yaratdi, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarning

rivoji uchun tartib – qoidalarni davlat siyosati tarzida amalga oshirdi. Soliq tizimi, mulkchilikda davlat va jamiyat manfaatlariga asoslanish, ilm – fan, ma’naviyat va ma’rifatga g’amxo’rlik qilish, tashqi siyosatda tadbirkorlik va qat’iyatlikka tayanishda ham o’z zamonasi uchun ko’plab yangiliklar yaratdi va o’zbek davlatchiligi tarixida o’chmas iz qoldirdi. Amir Temur donishmandlar nasihatiga amal qilib, davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo’lib, tashabbuskor insonlarni juda qadrlagan. U shunday deb ta’kidlaydi: “Mening tajribam shuni ko’rsatdiki, tashabbuskor, loqayd odamlardan qat’iyatlilik, tadbirkorlik, hushyorlik, jangovar, mard, qo’rqmaslik kabi fazilatlarga ega shaxs afzalroqdir. Tajribali odam minglab odamlarga ish beradi, u o’z tajribasidan bilib oldi: Qodir Allohning yordami va bandasining tashabbusi bilan g’olib bo’lish mumkin”.

A.Temurning bu so’zlari bugungi kunimizda ham o’z ahamiyatini va ahamiyatini yo’qotgani yo’q. “Temur tuzuklari” hikmatlar omboridir. Uning har bir sahifasida haqiqatning o’zi jaranglaydi, uning har bir satri chuqur ma’no-mazmun bilan sug’oriladi. Barcha tafsilotlarni qamrab olishning iloji yo’qligi sababli, biz ulardan faqat dolzarb bo’lgan va bugungi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan ba’zilarini keltiramiz.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o’zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o’rgatishga ko’proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa’diy 52 Sherzoziyning «Guliston», «Bo’ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar ham o’qitilgan. Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o’quv ishlarini yuritish belgilangan¹. Ulug’bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa rivoj topdi. Tibbiyat, tarix, adabiyot va shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e’tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarcand va G’ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo’lib keldi. Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko’zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir». Ulug’bek 1428—1429 yillarda Samarcandda rasadxona qurdiradi. 1437 yilda ana shu rasadxonada «Ko’ragoniy jadvali»ni, ya’ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi. Samarcand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo’lib, ularda yirik olimlar dars bergen bo’lsa, XIV—XV asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san’at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro’yxatdan o’tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarining shu davrda to’liq matni tuzilib, miniatyurlar bilan bezatilgan. Bular XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr Markaziy Osiyo tarixida uyg’onish davri bo’lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo’la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'rozova.R. "Amir Temur o'gitlari bizning davrimizda ham dolzarbdir".
<https://uza.uz>
- 2.Temur tuzuklari.-T.: b-98
- 3.Xolmaxamatova.Sh. Sohibqiron Amir Temur — adolatli hukmdor va yuksak ma'naviyat egasi. <https://xs.uz/>
4. <https://azkurs.org/>
5. Tishabayeva, I. R. (2023). 1945-1970 YILLARDA SHAHAR VA QISHLOQ MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MUTAXASSIS KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI: YUTUQ VA MUAMMOLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 866–869. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2790>
6. Tishabayeva, I. R. (2023). O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MODDIY TEXNIK AHVOLI (1946-1990 YILLAR). *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(9), 261–268. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/4902>
7. Tishabayeva, I. R. (2020). Formation, activities and problems of preschool education institution in Uzbekistan (1945-1980 years). *Academicia An International Multisciplinary Research*, 10(5), 342-347.
8. Tishabayeva, I. R. (2021). Institutions of Preschool Education in Uzbekistan (1945-1960). *International journal of multicultural and multireligious understanding*, 8(11), 227-231.
9. Азимов У., Холназарова Ш. Приоритетные направления развития аксиологического отношения молодежи к демократическим реформам //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 480-492.
10. Азимов У. Факторы развития аксиологического подхода к демократическим реформам у молодежи в контексте гражданского общества на основе национальных ценностей //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – С. 296-302.
11. Rasulova S. A., Azimov U. A. FORMATION OF AXIOLOGICAL CONSCIOUSNESS IN THE ERA OF GLOBALIZATION //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 228-231.
12. Азимов У. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКСИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНИТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ //ТОШКЕНТ-2021. – С. 102.
13. Азимов У. А., Умурзаков А. М., Абдурахмонов Г. З. Духовное мировоззрение и его влияние на национальные ценности //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-3 (73). – С. 62-64.